



**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINFLARNI IKKI
GURUHGA BO'LIB TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK
DARSLARINI O'TKAZISH**

Zulfiyev Rashid Ne'matovich. Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi o'qituvchisi

Tuxtamurodova Sitora Parda qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-
kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida Tasviriy san'at va Chizmachilik darslarini sinflarni ikki guruhga bo'lgan holda tashkil qilishning maqsadi, afzalliklari va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Kichik guruhlarda dars o'tkazish orqali o'quvchilarga individual yondashuvga e'tibor qaratish, ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bu yondashuv dars sifati va o'quvchilar faolligini oshirishda muhim omil ekanligi to'laqonli ravishda asoslab berilgan. Shular bilan birgalikda, mazkur maqola maktablarda ijodiy fanlarni o'qitishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: qalam, sirkul, qog'oz, motivatsiya, individual yondashuv, ijodiy tafakkur.

Abstract: This article analyzes the purpose, advantages, and practical aspects of organizing Fine Arts and Drafting classes in general secondary schools by dividing classes into two groups. It highlights the benefits of teaching in small groups, such as providing individual attention to students and enabling the development of creative abilities. Additionally, it is substantiated that this approach plays a significant role in improving the quality of lessons and increasing student engagement. The article also offers methodological recommendations aimed at enhancing the effectiveness of teaching creative subjects in schools.

Keywords: pencil, compass, paper, motivation, individual approach, creative thinking.

Аннотация: В данной статье проанализированы цель, преимущества и практические аспекты организации уроков изобразительного искусства и черчения в общеобразовательных школах путём деления классов на две группы. Подчёркиваются такие преимущества, как индивидуальный подход к учащимся и развитие их творческих способностей при проведении занятий в малых группах. Также обосновано, что данный подход значительно



способствует повышению качества уроков и активности учащихся. В статье приведены методические рекомендации, направленные на повышение эффективности преподавания творческих предметов в школах.

Ключевые слова: карандаш, циркуль, бумага, мотивация, индивидуальный подход, творческое мышление.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan, millionlab pedagoglar tomonidan bolaning ma'nan va jismonan yuksalishiga yetaklaydigan turli xil dasturlar va metodlar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri amaliy fanlar doirasida o'quvchilarni ikki guruhga bo'lish orqali dars mashg'ulotlarini olib borishdir. Tasviriy san'at va Chizmachilik darslari bolalarning estetik didi, fazoviy tasavvuri va texnik fikrlashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan olganda, sinflarni ikki guruhga bo'lib dars mashg'ulotlarini o'tkazish samaradorlikni oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Sinflarni ikki guruhga bo'lib dars o'tish, birinchi navbatda, har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratish imkonini yaratadi. Bu metod nafaqat amaliy, balki nazariy fanlarda ham birdek natija beradi. Ayniqsa, Tasviriy san'at va Chizmachilik fanlari amaliy mashg'ulotlarga boy bo'lib, har bir bola o'z ishini bajarishda o'qituvchidan maslahat va yo'l-yo'riq olishi kerak. Sinflarni ikki guruhga bo'lib dars mashg'ulotlari o'tilganda bu imkoniyat kengayadi. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini nazorat qilib, uning qobiliyatiga qarab yondashadi. Hozirgi kunda kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanganligi tufayli, o'qituvchilarning ulardan samarali foydalanishi, Tasviriy san'at va Chizmachilik fanlarida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ulardan turli xil grafika va chizmalarni ishlab chiqishda qo'llash talab etilmoqda. Bu jarayonda guruhga bo'lishdan maqsad o'quvchilar orasida musobaqa uyushtirish va ularning hammasini darsga to'liq jalb etish, bundan tashqari, har bir bolaning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri va yetralicha foydalanishga o'rgatishdir.

Mazkur fanlarda o'quvchilar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari lozim. Ikki guruhga bo'lib o'tilganda har bir o'quvchiga e'tibor va muloqot yetarli bo'ladi. Natijada o'qituvchi har bir o'quvchining ish jarayonini kuzatib, individual yordam ko'rsatishi osonlashadi. O'quvchilar orasida sog'lom raqobat va ijodiy muhit shakllanadi. O'quvchilar darsga jiddiyoq yondashadi, bu esa ularning mehnatsevarlik, e'tibor va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Bu metod



dunyo bo'yicha eng ko'p qo'llanilib kelinmoqda va uning natijalarini bir qancha rivojlangan mamlakatlarda tashkil qilinadigan darslar orqali ko'rishimiz mumkin. Dunyo bo'ylab ko'pchilik pedagoglarning bu uslubni qo'llashi va uni doimiy ravishda targ'ib etishi ham bejiz emas, albatta.

Metodik tavsiyalar:

1. Darsni rejalashtirishda guruhga bo'lishni e'tiborga oling. O'quvchilar soniga qarab sinfni teng ikki guruhga ajrating. Har bir guruhga bir xil darajadagi topshiriqlar berilishi, vaqt va resurslar teng taqsimlanishi zarur.

2. Amaliy va nazariy ishlariga navbat bilan yondashish. Birinchi guruh amaliyot bajarayotgan paytda, ikkinchi guruh nazariy bilimlarni mustahkamlashi, ranglar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishi yoki eskizlar tayyorlashi mumkin.

3. Asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanishni o'rgating. Chizmachilik va tasviriy san'at darslarida kerakli vositalar (sirkul, qalam, chizish, qog'oz, chizg'ich) yetarli bo'lmasligi mumkin. Guruhlarda navbat bilan foydalanish orqali tartib-intizomni saqlash mumkin. Tartib-intizomli o'quvchilar bilan esa mashg'ulot olib borish oson kechadi. Xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirib chiqing.

4. Har bir o'quvchiga alohida yondashing. Kichik guruhda har bir o'quvchining ishlash uslubi, saviyasi va qiziqishiga qarab shaxsiy maslahat va ko'rsatmalar bering.

5. Baholash mezonini aniqlang. Dars yakunida har bir o'quvchi ishi muhokama qilinishi, o'zaro taqqoslash asosida baholanishi o'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini uyg'otadi.

6. Taqdimot va ko'rgazmalar tashkil qiling. O'quvchilar chizgan ishlardan maxsus ko'rgazma tashkil eting. Bu ular uchun motivatsiya bo'ladi hamda otalarining ham e'tiborini jalb qiladi.

7. Tahlilga vaqt ajrating. Dars oxirida o'quvchilarning fikrini eshitish, o'z ishi haqida fikr bildirishini so'rash – ularning tahliliy tafakkurini rivojlantiradi.

8. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda ham turli xil metodlardan, masalan sanash yoki ularning yaxshi ko'rgan narsalari orqali guruhlash darsning yanada qiziqarli bo'lishiga yordam berishini alohida e'tiborga olish zarur.

Xulosa: Tasviriy san'at va chizmachilik darslarini sinflarni ikki guruhga bo'lib tashkil etish nafaqat o'quvchilarning individual yondashuv asosida rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi, balki ular o'rtasida tashkil qilingan musobaqalar orqali guruh bilan birgalikda ishlash qobiliyatini ham oshiradi. Bundan tashqari, guruhlarga bo'lishning har bir o'quvchiga alohida e'tibor berilishi, darslarning samarali ravishda tashkil qilinishi va qiziqarli o'tkazilishi, boshqa darslarga



qaraganda ko'proq o'quvchilarning baholanishi kabi xususiyatlarini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'lajak rassom o'qituvchini tayyorlashda akademik chizmachilikni o'qitish nazariyasi va amaliyoti MT qizi Hamroqulova, R.N.Zulfiev, B.B.Baymetov – Fan va ta'lim ilmiy jurnali, 2020 y.
2. 8-9-sinf chizmachilik darsligi. I. Rahmonov, D. Yuldasheva, M. Abdurahmonova.
3. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. S. Oripov, B. Jo'raev.
4. Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. A.A'zamjonov, Oktabr. 2022
5. Tekislikdagi Harakat, Uning Eng Sodda Turlari, Analitik Ifodasi U Xalmanov, S Aliqulova - Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2025
6. Xalmanov Ural Rasulovich, & Aliqulova Shoxsanam. (2025). Umumta'lim maktablarida mathematica 6.0 dasturidan foydalanish istiqbollari. "Umumjahon ilmiy tadqiqotlar bo'yicha konferentsiya 2023", 3(3), 13–16.